

4-dars. Predmetlar sanog'i

Tayanch so'zlar:

bir, ikki, uch,
to'rt, besh, olti,
yetti, sakkiz, to'qqiz



Doiralarni sanang.



1. Do'konda qanday va qancha sabzavot ko'ryapsiz? Sabzavotlar soni qancha bo'lsa, kataklarga shuncha tayoqcha chizing.




--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



2. Rasmlar asosida hikoya tuzish uchun narsalarni qanday tartibda joylashtirish kerak? Mantiqan birinchi keladigan rasmni aylanaga oling.



3. Qo'g'irchoq (matroshka)larni qanday tartibda yig'ish kerak?





4. Qizcha poyezdning chap tomonidan uchinchi vagonda, bola esa o'ng tomonidan uchinchi vagonda ketyapti. Ular orasida nechta vagon bor?



Agar qizcha chap tomondan beshinchi vagonda, bola esa o'ng tomondan beshinchi vagonda ketayotgan bo'lsa-chi?



Topshiriqni bajarish uchun darslikning oxirida berilgan stikerlardan foydalaning.



5. Koptok va piramidalarni sanang: birinchi piramida, birinchi koptok, ikkinchi koptok, ikkinchi piramida, uchinchi piramida... Sanayotganda adashdingizmi? Necha marta?



6. Daraxtning yoshi uning halqalari sonidan aniqlanadi. Bu daraxt necha yillik edi?



7. Rasmdagi oyoqlarni sanang. Bo'sh ramkaga nimani chizish mumkin? Biror rasm chizing.

